



ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO‘QIMA UYG‘UNLIGI

KENJAYEV ZIYADULLA ORTIQOVICH

Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro uyg‘unligi masalasi tahlil qilinadi. Yangi o‘zbek adabiyotida tarixiy shaxs obrazini yaratishda tarixiy manbalarga tayanish bilan birga, badiiy tafakkur imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada romandagi tarixiy voqealar, davr manzarasi va tarixiy shaxslar talqini tarixiy manbalar bilan qiyosiy o‘rganilib, badiiy to‘qimaning estetik vazifasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Isajon Sulton, Alisher Navoiy, tarixiy roman, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima, yangi o‘zbek adabiyoti, tarixiy shaxs obrazi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется вопрос гармонии исторической правды и художественной фактуры в романе Исаджона Султана «Алишер Навои». При создании образа исторической фигуры в новой узбекской литературе важно опираться на исторические источники и эффективно использовать возможности художественного мышления. В статье изучается интерпретация исторических событий, пейзажа эпохи и исторических личностей в романе в сравнении с историческими источниками, а также раскрывается эстетическая функция художественной фактуры.

Ключевые слова: Исаджон Султан, Алишер Навои, исторический роман, историческая правда, художественный вымысел, узбекская литература, образ исторической личности.



ABSTRACT

This article analyzes the issue of the harmony of historical truth and artistic texture in the novel “Alisher Navoi” by Isajon Sultan. In the creation of the image of a historical figure in new Uzbek literature, it is important to rely on historical sources and effectively use the possibilities of artistic thinking. The article studies the interpretation of historical events, the landscape of the period, and historical figures in the novel in comparison with historical sources, and reveals the aesthetic function of artistic texture.

Keywords: Isajon Sulton, Alisher Navoi, historical novel, historical truth, artistic fiction, modern Uzbek literature, historical personality.

Yangi o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzuga murojaat qilish, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini badiiy talqin etish muhim estetik va ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va buyuk ajdodlar merosini zamonaviy tafakkur nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish jarayoni adabiyotda ham faol namoyon bo‘ldi. Bu jarayonda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi nisbat masalasi alohida dolzarblik kasb etdi. Chunki yozuvchi tarixiy faktlarga tayangan holda, badiiy tasavvur orqali o‘tmish manzarasini jonlantiradi, tarixiy shaxsning ichki dunyosini ochib berishga intiladi.

Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani ana shunday izlanishlarning yorqin namunalaridan biridir. Asarda buyuk mutafakkir, davlat arbobi va shoir Alisher Navoiyning hayoti, ruhiy olami, ijtimoiy-siyosiy qarashlari badiiy talqin qilinadi. Mazkur maqolada roman misolida yangi o‘zbek adabiyotida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati tahlil qilinadi.

Adabiyotshunoslikda tarixiy haqiqat deganda tarixiy manbalar orqali tasdiqlangan voqealar, shaxslar va davr manzarasi tushuniladi. Badiiy to‘qima esa yozuvchining estetik maqsadidan kelib chiqib, tarixiy faktlarni badiiy umumlashtirish, ularni obrazli shaklda ifodalash jarayonidir. Tarixiy roman janrida



bu ikki unsur bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro uyg‘unlashgan holda badiiy asarning g‘oyaviy-badiiy mukammalligini ta’minlaydi.

Adabiyotshunos B. Qosimov ta’kidlaganidek, tarixiy roman “tarixning quruq takrori emas, balki tarixiy haqiqatning badiiy tafakkur orqali qayta yaratilgan shaklidir”. Demak, yozuvchi tarixiy faktlarga sodiq qolgan holda, ularni zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarli va ta’sirchan qilib talqin etadi.

Isajon Sulton “Alisher Navoiy” romanini yaratishda tarixiy manbalarga, xususan, Shuningdek, Alisher Navoiy obrazini yaratishda Navoiy hayot yo’lini yoritishga bag’ishlangan Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush shuaro”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Makorim ul-axloq, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” kabi tarixiy asarlar, shuningdek, tarixchilarning tadqiqotlariga tayangan. Romanda Navoiy yashagan XV asr Movarounnahr va Xuroson hududidagi ijtimoiy-siyosiy muhit, Husayn Boyqaro davridagi saroy hayoti tarixiy haqiqatga mos ravishda tasvirlanadi.

Isajon Sulton tarixiy obrazlar yaratishda ko’plab tarixiy manbalarga murojaat qilganini asarni o’qish davomida bilish mumkin. Xususan, Giyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari Navoiy obrazining turli qirralarini ochib berishda muhim bo’lgan tarixiy shaxs obrazlarini yaratishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. G‘iyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” (“Olijanob xulqlar”) asari debocha, muqaddima, 10 ta maqsad (asarning har bir bobi alohida-alohida maqsad deb nomlangan), xotima va Navoiy vafotiga doir voqealar haqidagi bobdan iborat bo’lib, mutafakkirlarning mutafakkiri, avliyolarning avliyosi, shoirlarning sultoni Alisher Navoiyning hayoti, ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati to’g’risida muhim ma’lumotlarni taqdim etuvchi tarixiy asar hisoblanadi.

Isajon Sulton “Alisher Navoiy” romanida turli darajadagi 200 dan ortiq obraz ishtirok etadi. Ushbu maqolada Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida keltirilgan tarixiy shaxslar va romandagi obrazlar haqida fikr yuritamiz.



Romanda keltirilgan Amir Sulton Hasan Arhangiy, Fazlulloh Abullays, Hasan Turkman, Mavlono Alishoh, Mavlono (Qutbiddin Xavofiy) Mavlaviy, Mavlono Muhammad Muammoiy, Mavlono Osafiy, Mavlono Shahobiddin Mudavvin, Mavlono Sone'iy, Mavlono Vays, Muhammad Yodgor, Xoja Husayn Kirangiylar kabi tarixiy obrazlar va Navoiy haqida Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida katta-kichik hikoyatlar va qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Romanning “Xizr kabi bir zot” bobida muhrdorlikdan vazirlikka tayinlangan Navoiyning xalq hayotini o'rganishi, xaloyiqning hukumatga munosabati, Hirotda qad rostlagan “Ixlosiya” madrasasi, “Xalosiya” xonaqohi, “Shifoiya” kasalxonasi, “Dor ul-huffoz” kutobxonasining nomlanishi bilan bog'liq voqealar bayon qilinadi.

Ushbu bobda muallif Navoiy shaxsini ta'riflashni oddiy xalq obraziga yuklaydi.

- Podshonning g'oyat adolatli bir vaziri bor emish, ismi Alisher Navoiy ekan.
- O'zi ham shoir ham emish, g'azallar bitarmish.
- Otoy-i-onoyisi oddiy xalqdan emish. Shu bois har ne bo'lsa elga bo'lsin der ekan.
- Lamg'onga borganlarida kishilar bilan birga tariq yanchibdi...
- Madrasa, rabot, yo'lar qurish ishlarini sultonga eslatib turarmishlar...

Navoiyning adolati-yu shoirligi, ota-onasi-yu oddiy xalq bilan munosabati, mamlakat obobdonchiligi borasidagi ishlari sodda odamlar tili bilan tavsiflanadi.

Muallif romanda Alisher Navoiy obrazining tarixiy siymosini aniqroq aks ettirishda “Makorim ul-axloq” asaridagi voqea-hodisalarga kengroq to'xtaladi.

Manbalardan ma'lumki, Navoiyning davlat mansablariga ko'tarilishi Husayn Boyqaroning taklifi bilan amalga oshirilgan. Jumladan, Navoiyning muhrdorlik lavozimiga kelishi romanning III qismi “Muhrdor” deb nomlangan bobida keltirilgan. Husayn Boyqaro Navoiyni muhrdorlik lavozimiga tayinlamoqchi



bo'lganda Navoiy mansabni rad etib vaj keltiradi. Ammo Husayn Boyqaro shunday bir taklif kiritadiki, Navoiyning boshqa e'tiroz bildirishiga o'rin qolmaydi.

Ahamiyat berish lozim bo'lgan jihat shundaki, barcha amirlardan yuqoriga muhr bosishi kerak bo'lgan Navoiy shunday joyga muhr bosadiki, biror kishi undan quyiroqqa muhr bosa olmaydi.

Asarda Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, davlat ishlaridagi mas'uliyati, adolat va xalq manfaatini ko'zlab qilgan sa'y-harakatlari tarixiy manbalarda qayd etilgan ma'lumotlar bilan uyg'unlashadi. Bu hol roman tarixiy ishonchliligini ta'minlaydi va o'quvchida ishonch uyg'otadi.

Isajon Sulton Navoiyni faqat shoir emas, balki davlat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglagan arbob sifatida tasvirlaydi. Romanda bu hol quyidagicha ifodalanadi: "Adolat — podshoh uchun ziynat emas, majburiyatdir. Agar adolat bo'lmasa, saltanat devorining poydevori yemiriladi."

Roman faqat tarixiy faktlar bayonidan iborat emas. Romanda muallif Alisher Navoiyning ichki kechinmalarini badiiy tasavvur orqali chuqur ochib beradi. Jumladan, Navoiyning ruhiy holati quyidagi satrlarda yaqqol namoyon bo'ladi: "Navoiy ba'zan o'zini saltanatning eng baland cho'qqisida emas, balki eng yolg'iz nuqtasida turgandek his qilardi. Chunki mansab ortida mas'uliyat, mas'uliyat ortida esa izzat yashardi".

Muallif badiiy to'qima orqali Navoiy shaxsining ichki kechinmalarini, ruhiy izzatlarini va falsafiy mushohadalarini chuqur ochib beradi. Tarixiy manbalarda ko'pincha rasmiy va umumiy tarzda yoritilgan holatlar romanda badiiy tafakkur yordamida jonlantiriladi. Masalan, Navoiyning yolg'izlik, mas'uliyat va ijodiy izzat bilan bog'liq ruhiy holatlari muallif tasavvuri mahsuli bo'lsa-da, ular tarixiy shaxs xarakteriga zid emas, balki uni yanada mukammal va tirik obraz sifatida namoyon etadi. Romanda Navoiyning ijodiy izzati va yolg'izligi badiiy tasvir vositalari orqali ta'sirchan ochib beriladi: "So'z — Navoiyning panohi edi. Ammo



har bir soʻz tugʻilgach, uning yuragida yana bir sukut paydo boʻlardi”. Bu oʻrinda badiiy toʻqima tarixiy haqiqatni boyituvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Isajon Sulton romanida Alisher Navoiy anʼanaviy ulugʻlash doirasidan chiqib, murakkab, koʻp qirrali shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu yondashuv yangi oʻzbek adabiyotiga xos boʻlgan psixologik chuqurlikni koʻrsatadi. Adabiyotshunos U. Normatovning fikricha, “zamonaviy tarixiy roman tarixiy shaxsni ideal qahramon sifatida emas, balki tirik inson sifatida koʻrsatishga intiladi”. Isajon Sulton ham aynan shu tamoyilga amal qilib, Navoiyni oʻquvchiga yaqinlashtiradi.

Romanda tarixiy haqiqat va badiiy toʻqima oʻzaro muvozanatda qoʻllanadi. Tarixiy voqealar asarning tayanch nuqtasini tashkil etsa, badiiy toʻqima ularni estetik jihatdan boyitadi. Natijada asar nafaqat tarixiy bilim beruvchi, balki badiiy-estetik taʼsir kuchiga ega boʻlgan roman sifatida namoyon boʻladi.

Bu uygʻunlik oʻquvchida tarixga nisbatan qiziqish uygʻotadi, tarixiy shaxsga nisbatan chuqur hurmat va tushunish hissini shakllantiradi. Ayniqsa, Navoiyning insonparvarlik, adolat va maʼrifatparvarlik gʻoyalari bugungi kun bilan mushtarak holda talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani yangi oʻzbek adabiyotida tarixiy haqiqat va badiiy toʻqimaning muvaffaqiyatli uygʻunlashgan namunasi hisoblanadi. Asarda tarixiy faktlarga tayangan holda, badiiy tasavvur orqali buyuk shaxsning murakkab va serqirra obrazi yaratilgan. Bu roman nafaqat Navoiyning hayoti va faoliyatini yoritadi, balki tarixiy roman janrining zamonaviy imkoniyatlarini ham namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 512 b.
2. Oybek. “Navoiy”. – Toshkent-2019.
3. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom // Yangi Oʻzbekiston, 2021-yil 10-avgust.



4. Quronov S. “Alisher Navoiy” romanida tarixiy shaxs konsepsiyasi. “Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar” – № 5. 2021 y.
5. G‘iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq”, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2018.
6. Nasrullayev E. Oybekning “Navoiy” romani talqinlari yuzasidan mulohazalar // Tafakkur ziyosi, 2018. – № 2. – B. 62–65.
7. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com) kutubxonasi.
3-bet